

MEHRIGIYOH O'SIMLIGINING DORIVOR XUSUSIYATLARI

Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti assistenti

D.Janazaqova

Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instiuti talabasi

S.Bektemirov

Annotatsiya: ushbu maqola dorivor o'simliklar shu bilan birga mehriqiyoh dorivor o'simligining xalq tabobatidagi o'rni va uni bugungi kunda yetishtirish uchun amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar to'g'risida bayon etiladi.

Kalit so'zlar: dorivor o'simliklar, dori-darmon, mehriqiyoh, ildizi, bargi, mevasi, guli.

Mehriqiyoh, mandragora oilasiga (ituzumdoshlar) mansub ko'p yillik o'tlar turkumi. Barglari yirik, tuxumsimon, yalit, bo'yi 80 sm cha. Gullari sarg'ish-yashil, zangori, binafsha yoki oq, yakka. Mevasi — to'q sariq, dumaloq, yirik rezavor-meva. O'rta dengiz sohillari va Himolay hududida 5 turi, Turkmanistonda bir turi o'sadi. Organlari tarkibida alkaloidlar (giossiamin, skopolamin va boshqalar) bor. Undan tayyorlanadigan preparatlar organizmdagi og'riqni qoldirish uchun ishlatiladi.

O'zbekistonda dorivor o'simlik sifatida O'zbekiston FA Botanika ilmiy ishlab chiqarish markazining botanika bog'ida o'stiriladi. Uni ko'paytirish yo'llari ishlab chiqilgan.

Markaziy Osiyo, xususan, O'zbekistonimiz turli-tuman o'simliklarga nihoyatda boy. So'nggi ma'lumotlarga qaraganda, yurtimizda ularning 4500 turi aniqlagan. Ma'lumki, nabotot olami o'ziga xos sir-sinoat va xosiyatga ega. Ana shunday o'simliklardan biri "mehriqiyoh" bo'lsa, ikkinchisi "jenshen"dir.

X asr boshlarida O'rta Osiyoliklar ham "jenshen" to'g'risida eshitganlar. Buyuk alloma Abu Ali Ibn Sino asarlarida o'simlik haqida mufassal ma'lumot keltirilgan. "Jenshen" ildizining yana bir hayratlanarli xususiyati bor. Agar uning poyasi shamol, hayvon yoki boshqa biron-bir sababga ko'ra sinib qolsa, ildiz chuqur uyquga kirarkan. Bu holatni terimchilar "Jenshen yerga kirib ketdi" deya talqin qilishadi. Ildizning uyqusi 20-yil, boring-ki undan ham ko'proq davom etishi mumkin. Uning yangi poya va barglari qulay sharoit tug'ilgandagina unib chiqadi. Qizig'i shundaki, odam qiyofasiga o'xshash "jenshen" ildizi boshqalariga qaraganda qimmatbaho sanaladi. Ildizning yoshi qancha katta bo'lsa, uning shifobaxshlik xususiyatlari ham shuncha ko'p bo'ladi.

Hayotbaxshlik bobida "mehriqiyoh" ildizi ham "jenjen"dan sira qolishmaydi. Yuqorida qayd etilganidek, bu o'simlik xususida buyuk allomalarimiz Ibn Sino va Beruniy tomonidan qimmatli ma'lumotlar keltirilgan. Ularda "mehriqiyoh" "Yabrihus

sanam” deb atalgan. Ibn Sino “Al-Qonun” kitobining II jildida o‘simlikka batafsil to‘xtalar ekan, uning mohiyati, tabiati, xossalari, inson a‘zolari – bo‘g‘inlar, bosh, ko‘z, oziqlantirish va boshqa a‘zolariga ta‘siri haqida shunday yozadi: “Haqiqatda bor bo‘lgan Yabrihus qoramtir bo‘lib, uvalanishga moyil va kust (o‘simlik, muallif) kabi yirikdir... Tabiblardan uni varafiya deb atovchilar ham bo‘lgan, ya‘ni uni ildizi muhabbat hissini qo‘zg‘atuvchidir”.

O‘z asarida ibn Sino “mehrigiyoh” ikki xil bo‘lishligi qayd etgan. “Birinchisi urg‘ochisi, deb tanilgan bo‘lsa, rangi biroz qoraga moyildir. Unga rivqus, ya‘ni qohu (o‘simlik, muallif) “mehrigiyoh” deydilar. Chunki uning yaprog‘i qohu yaprog‘i bilan hamshakldir... Ikkinchi xili – “mehrigiyoh”ning erkagi, bu oq, silliq, yirik va enli bo‘ladi. Yaprog‘i lavlagi yaprog‘iga o‘xshashdir...”.

Botanikaga oid ilmiy manbalarda yozilishicha, o‘tgan asr oxirlarida yer yuzida mehrigiyohning uch turi ma‘lum bo‘lgan. Hozirgi paytda esa ularning soni 6 taga yetgan bo‘lib, aksariyat Andalusiya, Italiya, Yunoniston, Himolay va Tibet tog‘larida o‘sishi ma‘lum. Markaziy Osiyoda ilk bor “mehrigiyoh” 1938-yili Turkmanistonning Kopetdog‘ tog‘ining g‘arbiy sarhadlarida topilgan. Barglari lavlagi yaprog‘ini eslatuvchi, ildizi odam qiyofasiga o‘xshash, mevasi esa o‘zimiz bilgan pomidor mevasiga yaqin (o‘simlik sistematik jihatdan ham unga yaqin) bo‘lgan, mazasi esa pishib yetilgan qovunga o‘xshaydi. Quvonarli jihati shundaki, hozirgi kunda bu shifobaxsh o‘simlik O‘zRFA “Botanika” IChMning Botanika bog‘iga ajratilgan tajriba dalasida yosh botanik olimlar tomonidan ekib, o‘stirilmoqda.

Ha, ildiz tuzilishi odam qiyofasiga o‘xshash bo‘lgan bu ikkala shifobaxsh o‘simlikni insonlar bejizga hayot ildizlari, deb atashmagan. Aslida tabiatning o‘zi mohir yaratuvchi. Aynan inson qiyofasini ana shu o‘simliklar ildizida aks ettirib, dardlardan xalos etib, hayot baxsh etgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati

1. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi O‘zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil (2000-2005)
2. **Karimov V.A, Shomaxmudov A.Sh. Xalq tabobati va ilmi tibda qo‘llaniladigan shifobaxsh o‘simliklar. - Toshkent, Ibn Sino nomidagi nashriyoti-manbaa birlashmasi, 1993.**
3. Belolipov I.V. O'zbekistonning o'simliklar dunyosi. Qo'llanma. – Toshkent: O'qituvchi, 1997.